

Umumiy shartlar

Maqsad	Shaxsiy ehtiyojlar uchun mikroqarz
Qarz oluvchiga qo'yilgan minimal talablar	<ul style="list-style-type: none"> - O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi - Doimiy rasmiy daromadga ega bo'lishi - Ijobiy kredit tarixi (mavjud bo'lsa) - Boshqa kreditlar bo'yicha qarzдорlik bo'lmasligi - MIBda qarzдорlik mavjud bo'lmasligi kerak
Kredit turi	Mikroqarz
Mikroqarz summasi	300,000 so'mdan 100,000,000 so'mgacha
Mikroqarz muddati	3 oydan 36 oygacha
Valyuta	O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi (So'm)
Stavka foizi	28% dan (stavka skoring - qarz oluvchini avtomatik baholash tizimi asosida aniqlanadi) Oshirilgan foizlar - muddati o'tgan asosiy qarz summasidan kuniga 0,35%
Kreditdan foydalanganlik uchun foizlarni hisoblash jarayoni boshlangan sana yoki uni aniqlash tartibi	Kredit rasmiylashtirilgan kundan boshlab ular asosiy qarzni qoldig'iga hisoblanadi. Shartnoma bo'yicha foizlar har kuni asosiy qarzni qoldig'iga hisoblanadi. Muddati o'tgan asosiy qarzni qoldig'iga har kuni oshirilgan foizlar hisoblab chiqiladi
Kredit olish va unga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq vositachilik komissiyalari, tariflar va boshqa to'lovlarning batafsil ro'yxati va miqdorlari	Kredit bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar mavjud emas
Kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik uchun iste'molchining javobgarligi va tavakkalchiligi	Bir martalik ikki kunlik kechikish uchun jarima – 50 000 so'm. Bank Kredit shartnomasiga muvofiq Qarz oluvchidan onlayn mikroqarzni (shu jumladan hisoblangan foizlarni) muddatidan oldin to'lashini talab qilishga haqli.
Kredit berish, shu jumladan masofaviy xizmatlar ko'rsatish tizimlari orqali kredit berish usullari	Taqdim etish shakli: naqd pulsiz o'tkazma ko'rinishida. Taqdim etish usuli: Bankda ochilgan talab qilib olinguncha hisob raqamiga, Bank tomonidan chiqarilgan bank kartasiga pul o'tkazish yo'li bilan.
Qarz oluvchining kreditni to'lashda, kreditdan foydalanganlik uchun foizlarni to'lashda va boshqa to'lovlarni to'lash davriyligi	Har oy, shartnoma jadvaliga muvofiq

Garovga qo‘yuvchi, kafil va kredit shartnomasining tomonlari bo‘lgan boshqa shaxslarning javobgarligi	Garovga qo‘yuvchi, kafil va kredit shartnomasining tomonlari bo‘lgan boshqa shaxslar (Tijorat banki va Qarz oluvchidan tashqari) mavjud emas.
Bank va iste‘molchining huquq va majburiyatlari, shu jumladan muddati o‘tgan qarzdorlikni undirish jarayonida iste‘molchining huquqlari, shuningdek, bank xizmatlarini ko‘rsatish shartnomasida nazarda tutilgan tomonlarning javobgarligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar	Shartlar, xizmatlar, tomonlarning huquq va majburiyatlari haqidagi barcha ma‘lumotlar “TBC Bank” ATBda mahsulot va xizmatlarni taqdim etish bo‘yicha Bosh Shartlarda va Onlayn mikroqarz shartnomasida ko‘rsatilgan.
Iste‘molchi tomonidan kredit olish uchun taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqish hamda kredit berish va undan foydalanish muddatlari	Bir ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddat ichida
Kredit olish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarning to‘liq ro‘yxati	Kredit olish uchun ariza berishda hujjatlarni taqdim etishning zaruriyati yo‘q. Barcha jarayonlar masofadan turib amalga oshiriladi.
Kredit shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishini ta‘minlash turlari	Mavjud emas
Kreditni muddatidan oldin so‘ndirish tartibi	Kredit shartnomasining 4.7-bandiga asosan, Qarz oluvchi tomonidan onlayn mikroqarz muddatidan oldin to‘langan taqdirda, Bank tomonidan ushbu to‘lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: <ul style="list-style-type: none"> - to‘lov kunidagi hisoblangan foizlar qoldig‘i; - asosiy qarz summasining qoldig‘i. - Shu bilan birga, dastlabki jadval qayta hisoblab chiqiladi va unda asosiy qarzning muddatidan oldin to‘langan qismi jadvalga muvofiq keyingi to‘lovlar uchun hisobga olinadi hamda asosiy qarzning qoldig‘i kredit shartnomasi muddati tugagunga qadar annuitet usuli bo‘yicha hisob-kitobga kiritilgan sanagacha faqatgina hisoblangan foizlar to‘lanadi.
Kredit shartlarini o‘zgartirish tartibi, shu jumladan so‘ndirish shartlarini qayta ko‘rib chiqish va garovga qo‘yilgan mol-mulkka qaratilgan undirish tartib-taomili	Tomonlarning kelishuviga ko‘ra, shartlar o‘zgarganligi to‘g‘risida ular kuchga kirishidan 10 kun oldin xabardor qilinadi, bu haqda ma‘lumotlar masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatish vositalarida, Bank filiallari binolari, shuningdek, bankning www.tbcbank.uz veb-satida joylashtiriladi.
Garov	Mavjud emas
Kreditning umumiy summasi (nominal foiz stavkasini va kreditga xizmat ko‘rsatish xarajatlarini o‘z ichiga oladi)	Kreditning umumiy summasi (KUS) avtomatik skoring tizimining qarori asosida aniqlangan foiz stavkasi miqdoriga teng.
Taqdim etilganligi uchun to‘lov	Mavjud emas
Jadval	Annuitet (teng oylik to‘lovlar)

To'lov sanasi	Baholash tizimiga qarab har bir mijoz uchun avtomatik ravishda tayinlanadi
Bir vaqtning o'zida bir nechta kreditlarni rasmiylashtirish imkoniyati	Mavjud emas
Muddatidan oldin so'ndirish imkoniyati	Mavjud
Muddatidan oldin to'laganda jadvalni qayta hisoblash usuli	To'lov summasi to'langan asosiy qarz hisobiga kamayadi, kredit muddati o'zgarishsiz qoladi.